

## Bilim bilan ma'rifatning tutqichi, ilm ila ikki dunyo ochqichi

Yoshlarni ma'rifatli qilish ularni ilmga qiziqtirish va ergashtira olishga bog'liq. Bu xayrli va ma'rifiy maqsad pedagogga, chinakam olimga kuch beradi. Chunki, taraqqiyot tafakkuri va ongu shuuri yuksak bo'lgan avlodga bog'liq. Bu esa barkamollik belgisi hamdir.

Institut rektori tomonidan 2018 yil 24 oktyabrda tasdiqlangan "TIQXMMI va Toshkent shahar Shayxontohur tumani 324-maktab hamkorligidagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish maqsadida "Elektrotexnika va mexatronika" kafedrasida o'qituvchilari tomonidan 24.11.2018 yil kuni Toshkent shahar Shayxontohur tumanidagi 324-maktab 8"d" sinf o'quvchilariga "Ilmdan boshqa najot yo'q" mavzusidagi davra suhbatini o'tkazildi.

O'quvchilarga "Temperaturani o'lchash, avtomatik nazorat qilish va rostlash" bo'yicha kafedra dotsenti A. Gapparov va A. Botirovlar tomonidan mikroelektron qurilmalari namoyish qilindi. Bu esa maktab o'quvchilarida katta qiziqish uyg'otdi. O'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan barcha savollarga to'liq javob olishdi va bizning institutga ekskursiya uyushtirish istagi bilan chiqishdi. Tadbirida maktab direktori Po'latova Baxtiniso Xolmuratovna va "M M" ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Abdumannopova Muhabbat Bultakovnalar ham ishtirok etishdi.



**"Qishloq va suv xo'jaligi energiya ta'minoti" fakulteti Ma'naviyat-ma'rifat ishlari bo'yicha dekan muovini Sh.O.Berdiyev axboroti**

**Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**